

Halima Xudoyberdiyeva

Ehtirosli shoira, jurnalist, mushohadanavis, faol jamoatchi, O'zbekiston Respublikasi xalq noibi, Respublika Prezidentlik Kengashining a'zosi, «Saodat» oynomasining bosh muharriri, Respublika xotin-qizlar Kengashining raisi lavozimlarida faoliyat ko'rsatgan adiba Halima Xudoyberdiyeva 1948 yili Sirdaryo viloyatining Boyovut tumanida oddiy dehqon oilasida tavallud topgan.

O'rta maktabni tugatib, 1968-1972 yillar mobaynida Toshkent Davlat dorpifununda ta'lim olgan. So'ngra «Saodat» oynomasida bo'lim boshlig'i, muharrir o'rinbosari vazifalarida ishlagan. 1975-1977 yillarda esa Moskvadagi Oliy Adabiyot kursida o'qigan.

O'qishdan qaytgach, 1978-1982 yillarda «Yosh gvardiya» nashriyotida bo'lim boshlig'i sifatida faoliyat ko'rsatgan. Uningijodi 60-yildardan boshlangan bo'lib, hozirgacha yigirmaga yaqin she'riy, publitsistik asarlar to'plami nashr etilgan. Uning birinchi she'riy to'plami «Ilk muhabbat» 1969 yilda nashr etildi.

Shundan so'ng «Oq olmalar» (1973), «Chaman» (1974) «Suyanch tog'larim» (1976), «Gordost» (1976), «Bobo quyosh» (1977), «Issiq qor» (1979), «Beliye yabloki» (1980), «Sadoqat» (1983), «Muqaddas ayol» (1988), «Yuragimning og'riq nuqtalari» (1991) kabi she'riy, publitsistik asarlar to'plami chop etildi.

Shoira Halima Xudoyberdiyeva she'riyatining mavzu va ma'no ko'lhami nihoyatda keng va chuqurdir. Uning she'rlarida go'dak, ayol, ota-ona, yer-suv, tabiat va tog'u tosh va qushlar taqdiri, ularning yashash tarzi, tabiati, holati ifodalanadi desa bo'ladi. Yaxlit holda inson, tabiat va janiyat muammolarining deyarli barcha ko'rinishlari shoirani hayajonga soladi.

Tuproq, ona yer va inson taqdiri bir butunlikni tashkil etadi. Shu boisdan ham u bir she'rida «Men shu tuproq kuychisiman» deb g'ururlapadi. Eng muhimi, shoir nima haqida, kim to'grisida yozmasin, ko'pincha ichki yoki tashqi, ruhiy holatlarni chizishdan ko'ra, o'y-mushohadalar ziddiyatlarini chizishga ishtiyoq kuchli.

Shu boisdan bo'lsa kerak, shoirani mushohadanavis adiba ham deyishadi. Mana shu holat va she'riyatidagi soddalik, samimiylilik kitobxonni ham o'ziga jalb etadi:

O'quvchim, to'kildi og'u bilan bol,

Men she'r deb atadimuning otini.

Hayajonli kunlar mevasini ol.

Ol, uyqusiz tunlar mukofotini.

Ha, shoiraning barcha she'rlari, to'plamlari ana shu dardli, hayajonli kunlar va tunlar mevasidir. Halima faqat shoiragina emas, otashnafas publitsist hamdir. Ayniqsa, uning«Yuragimning og'riq nuqtalari» to'plamiga kirgan barcha asarlarida Zamonamizning eng dolzarb muammolari haqida mushohada yuritiladi.

Ularda Ona, Ayol, Ezgulik, Bolalik va Kelajak bosh qahramon sifatida namoyon bo'ladi. Halima Xudoyberdieva faqat otashnafas shoira, publitsistgina emas, mohir tarjimon sifatida ham barakali ijod qilmoqda. Xususan, uning Fazu Alieva, Silva Kaputikyan, Ibrohim Yusupovlardai qilgan tarjimalari e'tiborlidir.

Atoqli adiba Zulfiya so'zlari bilan aytganda, Halima «Tuyg'u, o'ylar, toshqin hislar» bilan to'la she'riyat ijodkoridir. Unga «Muqaddas ayol» she'riy to'plami uchun 1990 yilda Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofoti berildi. 1992 yilda esa O'zbekiston Respublikasi xalq shoirasi degan yuksak unvonga sazovor bo'ldi.

